

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari	444
I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish	448
M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi	455
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova	
The structure of speech acts in various types of discourse	462
X.M.Sotvaldieva	
Paremiologiya fan sifatida	467
A.E.Botirova	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar	473
R.Radjabov	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar	478
M.N.Raxmanova	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari	482
U.B.Almaz, O.X.Barziyev	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar	486
D.Sh.Islomov	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida	493
M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
G.A.Saydaliyeva	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
G.N.Isakova	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
J.J.Egamberdiyev	
Lug'at zamon va davr elchisi.....	511
Sh.Sh.Zarmasov	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili	515
G.P.Nazarova, F.B.Alimova	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
S.A.Mannonova	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari.....	526
N.K.Ergasheva	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context	529
A.K.Usmonov	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari	533
N.K.Abbasova	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms	538
D.G.O'rinboyeva	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar	542
N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова	
Когнитивный подход к анализу художественного текста	550



UO'K: 372.65

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR**НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ОБУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ****SOME CONSIDERATIONS ON TEACHING ENGLISH TO CHILDREN IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS****O'rinboyeva Guluzro Dushayevna**

Andijon davlat chet tillar institute, Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv tarbiyaviy faoliyatida psixologik va pedagogik metodlarni qo'llash orqali bog'cha yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatish usullari xususida ayrim mulohazalar bayon etilgan.

Аннотация

В статье представлены некоторые мнения и соображения относительно проводимых реформ по дальнейшему совершенствованию и развитию системы дошкольного образования в нашей стране, использования психологических и педагогических методов в воспитательной деятельности дошкольных образовательных организаций.

Abstract

This article provides some comments on the reforms implemented in our country and the further improvement and development of the pre-school education system, and the use of psychological and pedagogical methods via educational activities in pre-school organizations.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, qaror, farmon, psixologiya, didaktika, kichkintoy, ta'lim-tarbiya, fiziologiya, pedagogika, bilim, ko'nikma, malaka, topishmoq, tez aytish, she'r, qo'shiq, o'yin.

Ключевые слова: дошкольное воспитание, психология, педагогика, воспитание, физиология, педагогика, знание, умение, загадка, скороговорка, стихотворение, песня, игра.

Key words: pre-school education, president decree, psychology, didactics, infant, education, physiology, pedagogy, knowledge, skill, qualification, riddle, tongue twister, poem, song, game.

KIRISH

Hozirgi kunda chet tillarni o'rganishga katta e'tibor qaratilayotgan bir paytda nafaqat maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari, balki maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga ham chet tilini o'rgatish davr talabi bo'lib qoldi. Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan bu sohani takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda «2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 9-sentyabrda «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli hamda 2017-yil 30-sentyabrda «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli qaror va farmonlarini fikrimizning dalili sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu qaror va farmonlarning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbir etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim farzandlarimizning rivojlanishida eng asosiy bosqich hisoblanadi. Aynan bu yerda bolaning nafaqat fiziologiyasi, balki uning keyingi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan aqliy faoliyati ham shakllanadi. Hammamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining bosh bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom, barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bir qancha mamlakatlar qatori yurtimizda ham ingliz tilini bog'cha yoshidanoq bolalarga o'rgatishni rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. [4] Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror va farmonlarini fikrimizning dalili sifatida keltirishimiz mumkin.

P.Yusupovaning «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi», M.Akromovaning «Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi» hamda «Ilk qadam» nomli Maktabgacha ta'lim muassasalari Davlat o'quv dasturlarida bog'cha yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash va ularga chet tillarni o'rgatish xususida ham foydali maslahatlar va yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish masalasi muhokama qilinadi. Unda bog'cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qitishda kerakli ma'lumot va yo'l-yo'riqlar keltirilgan. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv tarbiyaviy faoliyatida psixologik va pedagogik metodlarni qo'llash orqali bog'cha bolalariga chet tilini o'rgatish usullari xususida ayrim mulohazalar ham bayon etilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Kichkintoylar oilasidan ajralib, bog'chaga chiqib, o'zi tengi bolalar orasiga kirganlaridan so'ng ularda gapirish, tinglab tushunish, eshitish va muloqot qilish qobiliyatlarining asta sekin rivojlanib borishini kuzatamiz. Chunki, endi bolalar bu yerda ustoz va tarbiyachilari yordami bilan qo'shiq kuylashadi, raqsga tushishadi, she'r va tez aytishlar yod olishadi, turli xil multfilmlar tomosha qilishadi, ranglar, hafta kunlari, oy nomlari va shu kabi juda ko'p narsalarni o'rganishlari qatorida chet tilini ham o'zlashtira boshlaydilar. Odatda bolalar 3 yoshdan 7 yoshgacha, ya'ni maktabga chiqish yoshiga qadar maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnashadi va bu davr ularning bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan, mana shu davrdan boshlab bolalarning gapirish, tinglash, taqlid qilish, fikrlash, berilgan savolga javob berish kabi faoliyatlari rivojlanadi, ularda xorijiy tilni o'rganish qobiliyati paydo bo'ladi, hamda shaxsiy individual xususiyatlar, ya'ni insoniy fazilatlar asta-sekin tarkib topa boshlaydi. [3]

Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarning eslab qolish qobiliyati katta yoshdagilarga nisbatan ancha kuchliroq bo'ladi lekin, ularning fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi, atrof-muhit va odamlar haqidagi fikrlari to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu bilan birga bu yoshda bolalarda hali o'qish va yozish ko'nikmalari mavjud bo'lmaganligi sababli ingliz tilini ular, asosan, tinglash, takrorlash, taqlid qilish va yod olish orqali o'rganishadi. Bu esa ingliz tili mashg'ulotlarini olib boradigan ustozlardan anchagina mahorat, sabr-toqat va kreativlikni talab qiladi. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Kichkintoylarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga nisbatan bolalarda vaqtning ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, balki uni mexanik tarzda yod oladilar. Shuning uchun ularga til o'rgatishni nazariyalardan yoki qandaydir qonun-qoidalardan boshlamaslik darkor. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamlaridanoq bolani zo'riqtirib, qiziqishini so'ndirib va zeriktirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va ma'uliyatli vazifa hisoblanadi. [6] Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- materialni qo'shiq yoki she'r tarzida o'rgatish. Masalan ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rgatish shunchaki uni yodlashdan ko'ra ham osonroq ham qiziqarliroq bo'ladi;
- multfilm va bolalar yoshiga mos filmlarni tarjimasiz ingliz tilida tomosha qildirish;
- sodda va oson tilda yozilgan qo'shiqlarni tinglab takrorlash;
- rol ijro etish (role play);
- topishmoqlar;
- ko'rgazmali qurollardan foydalanish;

- tabiat qo'yniga chiqib atrof-muhitni jonli o'rganish;
- tez aytishlar va hokazolar;

Bundan tashqari, ingliz tilini maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga turli xil didaktik o'yin orqali o'rgatish ham samarali natija beradi. Chunki bu yoshda o'yin bolaga nimanidir o'rgatishda juda katta rol o'ynaydi. Bolani qiziqtiruvchi yoki unga kuchli ta'sir qiluvchi faoliyatlar uning diqqatini jalb qiladi. Bolalar o'yin orqali diqqat, xotira va idrokni qiyinchiliksiz shakllantirishlari mumkin. O'yin jarayonida bolaning aql-idroki, zehni va boshqa psixik xususiyatlari o'sadi. Sababi bola o'yin jarayonida o'zini erkin his etadi. O'yin o'ynalayotgan paytdagi ma'lumotlarni ham osonlik bilan qabul qiladi. Ya'ni o'yin faoliyati orqali beriladigan ma'lumotlar bolalar xotirasidan muammolarsiz o'rin oladi. Bolalarning harakatli o'yinlarga, yorqin ranglarga bo'lgan qiziquvchanligidan foydalanib, shu o'yinlar tarkibiga uncha murakkab bo'lmagan va eng ko'p ishlatiladigan inglizcha so'z va birikmalarni kiritib borish orqali o'rgatish mumkin. Shuningdek, o'zi yoqtirgan ranglarning inglizchasini kichik she'r va iboralar orqali ham o'rgatish mumkin. [3] Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bola aynan shu davrda hayoti davomida to'planib boradigan so'z boyligining ko'p foizini to'plashga ulgurur ekan, shu sababli ham bu yosh til o'rganish uchun juda qulay fursat hisoblanar ekan. Bu kabi o'yinlar bolalarga nafaqat xursandchilik, huzur va zavq-shavq bag'ishlaydi, balki ingliz tilini o'rganishlarida cheksiz qiziqish uyg'otadi. Bog'cha bolalariga ingliz tilini o'rgatuvchi pedagoglardan kuchli bilim bilan bir qatorda yetarli tajriba, mahorat, salohiyat va eng asosiysi yaxshigina sabr talab etiladi. Ular ingliz tilini mukammal egallagan bo'lishlariga qaramay, psixologik jihatdan ham kerakli ma'lumotga ega bo'lishlari va bolalar bilan oson til topisha oladigan bo'lishlari muhimdir. Didaktik o'yinlar orqali bolalarni qiziqтира olish, o'yinni to'g'ri tashkil qilish va ular bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantira bilish pedagogdan talab qilinadigan asosiy vazifa hisoblanadi. [5]

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish lozimki, har tomonlama komil, yetuk insonni shakllantirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi hozirgi zamon bolasi psixologiyasining muhimligini ko'rsatib beradi. Chunki, bu vazifani amalga oshirishda pedagog – psixolog kadrlar mahorati, ularning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasi hamda bilimsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Zero, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: «Aqlli, zakovatli, ma'naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi» [2].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi» Qarori, 2019, 13 may, PK 4312 son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: «O'zbekiston», 2019.
3. D.Jabborov, G.Ergasheva Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatish metodikasi.. Namangan. 2021y.
4. P.Yusupova Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1993y
5. M.Akromova Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Buxoro. 2021 y
6. «Ilk qadam» maktabgacha ta'lim muassasalari Davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2018y.